

ABDULLA QODIRIYNING “O‘TKAN KUNLAR” ROMANI TARJIMASIDA MILLIYLASHTIRISH MASALASI

Hamidova Sevaraxon Olimjon qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti fakulteti talabasi.*

khamidovas97@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari tarjimasida milliy ruh, an‘ana va qadriyatlarning aks etishi masalasi tahlil qilinadi. O‘zbek milliy qadriyatlarini ifodalovchi leksik birliklar, toponimlar, frazeologizmlar va madaniy realiyalar qanday tarjima tiliga o‘girilganligi va tarjimon bu yo‘lda qanday tarjimonlik mahoratlaridan foydalanganligi aniqlanadi. Tadqiqot natijasi sifatida, bu noyob asar tarjimasida milliylashtirish masalasi o‘zbek xalqining tarixiy va madaniy merosini xalqaro miqyosda anglashda muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Abdulla Qodiriy, roman, milliy ruh, transliteratsiya, tavsifiy tarjima, madaniy meros, frazeologiya, o‘zbek adabiyoti.*

Abdulla Qodiriy o‘zbek adabiyotida romanchilikka asos solganligi hech kimga sir emaski, uning yo‘l boshidagi “O‘tkan kunlar”i milliy adabiy tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Asarda o‘zbek xalqining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy hayoti, urf-odatlar, mentaliteti va milliy qadriyatlari chuqur badiiy ifodasini topgan. O‘zbek durdonasi bo‘lgan bu asarni boshqa xalqlarga tanitilishida ham sanab o‘tilgan badiiy ifodadagi milliy ruhni rang-barangligi-yu, qo‘shirnoq ichida bo‘lgan rangsizligini ham saqlab qolish eng mas‘uliyatli va murakkab jarayon ekanligi hammaga ma‘lum.

Shuni ta‘kidlash joizki: "Tarjimon ikki til, ikki millat o‘rtasidagi ko‘prikdir va uning tarjima qilish qobiliyati xalqning, millatning eng nozik jihatlarini aks ettiradi". Chunki tarjimon asarni o‘quvchi nuqtayi nazaridan idrok etadi va xulosalar chiqaradi. Shunday ekan, roman tarjimasida milliylashtirish tamoyilini o‘rganish, milliy koloritni tarjimada qanday yoritilganligini ilmiy asosda ko‘rib chiqish muhim ahamiyatga ega.

Ma‘lumki, Abdulla Qodiriy davrida ona tilimiz nafaqat arab, fors va tojik tillarining aralashmasi, balki rus va tatar tillaridan ham kirib kelgan so‘zlarning qorishmasidan iborat bo‘la boshlagan edi. Bir tomondan, Yusufbek Hoji, Mirzakarim Qutidor, ikkinchi tomondan, Otabek va Kumushning nutqi shirali, boy, sodda, ravon, ifodali til bo‘lib, ularning madaniyati, tafakkuri, itoatkorligi, kamtarligi, uyatchanligi – xalqimizning tom ma‘nodagi xarakteri. Oybek ham "O‘tkan kunlar" romanining tili haqida yuksak ta‘rif berib,

shunday deydi: "Romanning tili chindan ham boy, rang-barang, sodda, kuchli, jamoatchilik uchun tushunarli".¹

Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" asari o'zbek romanchiligining cho'qqisidir. Yozuvchining mahorati o'zi mansub bo'lgan xalq hayotini milliy tilda tasvirlaganda, tarixiy voqealar orqali milliy qahramonlar va milliy an'analarni uyg'unlashtirishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun adabiy asarlardagi qahramonlar xalqning ifodasidir va ularning o'zlarini ifoda eta olmaydigan murakkab ruhiy holatlari muallif nutqida tasvirlangan. Qodiriy asarlaridagi sehrli joziba omillaridan biri uning milliy tili, desak mubolag'a bo'lmaydi.

San'at asarining milliy shaklini tiklash badiiy tarjimaning eng muhim muammolaridan biri. Milliy o'ziga xoslikni boshqa vositalar orqali aniqlash sohasida katta tajriba to'plangan. Badiiy asarlarni tarjima qilishda millatchilikni qayta yaratish muammosi faqat asar boshqa tilda taqqoslanganda yaqqol ko'rinadi. Rus tilini o'zlashtirgan o'quvchi, albatta, badiiy asarni asl tilda o'qiy oladi. Agar uning sevimli asari ona tiliga tarjima qilinsa, albatta, u ona tilida o'qiladi.

Bugungi kunga qadar asar rus, nemis, turk, tojik, qozoq, turkman va boshqa ko'plab tillarga tarjima qilingan. I. To'xtasinov va uning jamoasi bir necha yillardan beri asarni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilib kelmoqda. Asarning ingliz tiliga tarjimasi britaniyalik tarjimon va adabiyotshunos Kerol Ermakova tomonidan tarjima qilingan. Shuni ta'kidlash kerakki, adabiy asarlar, ayniqsa romanlar tarjimasining o'ziga xosligi shundaki, boshqa adabiy asarlardan farqli o'laroq, ular asl nusxaning o'rnini bosmaydi va asar matni to'liq tarjima qilinmaydi. Kerol Ermakova ("Days gone by") va Ilhomjon To'xtasinov ("The Days gone by") tomonidan tarjima qilingan roman versiyalarini tarjimada ko'rish mumkin, lekin asl til boshqacha.

Asliyat: "Musulmonqul Normuhammad Qushbegiga o'z qo'shiniga besh ming askar qo'shib, ularni Toshkent ustidan yubordi!"

O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima: "Musulmonkul sent troops of five thousand people to NarMohammed Kushbegi to lead a riot against Tashkent!"

Rus tilidan ingliz tiliga tarjima: "Musulmonkul has sent five thousand warriors headed by Nar Mohammed Kushbegi to suppress the uprising!"

Asar tarjimasi jarayonida tarjimonlarimiz muallif uslubini qayta tiklash, asar ritmi va intonatsiyasini saqlab qolish, qahramonlar nutqini asl tabiatida aks ettirish, milliy rang berish, frazeologiyaning muqobil variantlarini topish qobiliyatiga ega. Bilamizki, bunday tarixiy asarlar xalq hayotining muayyan bir davridagi ijtimoiy-siyosiy harakatlarini ham

¹ Oybek. Mukammal asarlari to'plami. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1978.

ifodalaydi. Shunday ekan, tarjimada yaratilgan asarning barcha lingvistik vositalarini saqlanib qolishi oson emas. Asarning boshqa tarjimonlar tomonidan qilingan tarjima matnlarini o‘qish va ularning afzalliklari va kamchiliklarini tarjimon sifatida payqashning o‘zi bir mahorat, tarjimon xabardor bo‘lishi lozim bo‘lgan xolatdir.

Bu izlanishlar, albatta, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan ehtimoliy xatolarning oldini olishga, asar mazmunini to‘g‘ri anglash va yetkazishga xizmat qiladi. Tarixiy asar zamonaviy tilda yaratilishi, shu bilan birga tarixiy ruhni ham o‘quvchiga tarjima orqali yetkazish zarur. Ayniqsa, gap vaqt va makon tushunchalari haqida ketganda...

Quyida parchani tahlil qilamiz, aslyat matn:

Mirzaboshi kirib Xonga va Musulmonqulga bosh egdi. Musulmonqul hali ham bezovta edi, chekish bilan o‘zini ovutmoqchi bo‘lib, tashqariga baqirdi: “Chilim!” So‘ng Mirzaboshiga qarab: “Marg‘ilon hokimi O‘ttaboy Qushbegiga xat yoz va uni chopar orqali yubor. Unga Yusufbek hojining og‘li Otabekni olib kelishini tayinla.”

K. Ermakova tomonidan rus tilidan ingliz tiliga tarjimasi:

Mirzabashi entered, bowed respectfully to the Khan and then to MusulmanKul. But the ruler was still extremely agitated and once again felt compelled to smoke. “Cigarettes!” he yelled, before turning to Mirzabashi: “Write to the ruler of Margilan, Uttaboy Kushbegi, at once, and order him to appear here together with Atabek, son of Yusufbek hadji. Send the letter with a rider.”

I. To‘xtasinov tomonidan o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasi:

Mirzabashi entered the hall and greeted Musulmonkul who got frustrated again and called- “Kalian!”, then said to Mirzabashi: “Right now send a letter to the governor of Margilan, to Uttaboy, with the courier. Ask him to bring Otabek, the son of Yusufbek hadji, immediately!”

Tarjimonlarimiz o‘zbek tilini bilish bilan bir qatorda, xalqimiz ijtimoiy o‘zlikni anglash, milliy xarakter, turmush tarzi, an‘analar, urf-odatlar, axloq, qadriyatlar va dunyoqarashni chuqur bilishini isbotladilar.

Umuman olganda, so‘zlarni tarjima qilish jarayonida milliy xususiyatlarni quyidagi usullar orqali ifodalash mumkin.

Bular: a) Transliteratsiya — bu asl tildagi biror so‘zning harflarini maqsad tilidagi boshqa harflar orqali moslashtirish, ya‘ni harflarni o‘zgartirish yo‘li bilan ko‘chirish usulidir. Milliy so‘zlarni transliteratsiya qilishning asosiy sababi shundaki, asl tilga xos lingvistik birliklar maqsad tilida mavjud bo‘lmaydi. Masalan: Kumush uyalib zo‘rg‘agina salom berdi va Yusufbek hojining yaqiniga kelib bo‘yin egdi. Tarjima: Kumush shyly greeted and came closer to Yusufbek hadji, bowing her head. b) Odatda transliteratsiya yoki transkripsiya orqali tarjima qilingan tushuncha va ma‘nolarni o‘quvchiga yaqinroq

tushuntirish uchun izohlar va tavsiflar qo‘llaniladi. Masalan: “Qutidorning uyiga kelgan mehmonlar hurmatli kishilar edi, ularga turli xil birinchi va ikkinchi taomlar hamda shirinliklar, jumladan xolva va nisholda tortildi.” Tarjima: “The guests who came to Qutidor’s house were respected people. They were served a variety of first and second courses, as well as sweets, including halva (a sweet made of nuts, sugar, and butter) and nisholda (a type of thick dessert).” d) Tavsifiy tarjima— bu iboraning ma’nosini so‘z birikmalarini o‘zgartirish orqali bayon qilishdir. Ba’zi hollarda asl tilida mavjud bo‘lgan frazeologik birlikning tarjima tilida muqobili bo‘lmagani sababli, u mazmunan tavsif yo‘li bilan ifodalanadi. Milliy so‘zlarni tarjima qilishda ham ular ma’lum xususiyatlariga ko‘ra tarjima qilinadi. Bunda har bir tarjimonning yondashuvi turlicha bo‘lishi mumkin. Ayrim tarjimonlar milliy ruhni saqlab qolish maqsadida, hatto tarjima tilida ma’no va vazifa jihatidan mos keladigan muqobil mavjud bo‘lsa ham, asl so‘zning milliyligiga sodiq qolishga harakat qiladilar. Masalan: “...Anchagina so‘zsiz o‘lturgandan so‘ng, hoji muloyimona so‘z ochdi. - O‘g‘lim, hali san eshitdingmi, yo‘qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo‘ydiq...” Tarjima: “...After sitting in silence for quite a while, the hadji (a respectful title for a Muslim who has completed the pilgrimage to Mecca) spoke gently. My son, I don’t know if you have heard or not, but we have done something on your behalf...”

Xulosa shuki, tarjima tilida milliy koloritni, ijtimoiy hayot tarzini, urf-odatlar, milliy xarakter va axloq timsollarini kitobxonga singdirish juda ham mas’uliyatli va izlanishga boy ishdir. Buni har bir tarjimon his qilishi kerak, huddi I.To‘xtasinov va K.Ermakovalar his qilgani kabi.

Shundagina, tarjimon xalqning milliy tilini nafaqat o‘z tilidagi kitobsevarlariga, balki boshqa til vakillariga ham asar yozuvchisining g‘oyasi, maqsadlarini yetkazishda, shunday hurmatga sazovor ishni yetkazishda, sherik bo‘ladi desak yanglish bo‘lmaydi. Milliy til deganda Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani ko‘z oldimizga kelar ekan, xalqaro miqyosda ham shu darajani saqlab qolish tarjimon zimmasidagi vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodiriy A. The Days Gone By. In: Tukhtasinov I.M., Muminov O.M., Khamidov A.A. (tahr.). — T.: Mashhur-Press, 2017.
2. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. Toshkent, 2014.
3. Qodiriy A. O‘tkan kunlar. Toshkent, 2014.
4. Musaev K. Tarjima nazariyasi asoslari. Toshkent, 2005.

5. Mahmadiyor Asadov. HOMO POETIKUS KONSEPSIYASI: NAVOIY VA RUMIY. jild. 1 No 1 (2025): SHARQ MUMTOZ POETIKASI MUAMMOLARI: NAVOIY VA RUMIY

6. Mahmadiyor Asadov. (2025). The concept of individualism and absurdity in Camus' the stranger. American Journal of Philological Sciences, 5(03), 119–123. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume05Issue03-30>

7. Асадов М. (2020) Альбер Камю ва Хуршид Дўстмуҳаммад прозасида абсурд қаҳрамон муаммоси/ “Сўз санъати сўзлиги”, 3 жилд, 2 – сон. Тошкент. 2020йил. – Б.117 – 126.